

PAPER

NAVOIY ASARLARINING SHARQ VA G'ARB MADANIYATIDA TUTGAN O'RNI

Abduxakimova Umida¹,

¹Samarqand davlat chet tillari instituti Payariq Xorijiy tillar fakulteti talabasi

* abduxakimova@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarining Sharq va G'arb madaniyatlaridagi o'rni har tomonlama yoritilgan. Ijodkor asarlarida o'z ifodasini topgan umuminsoniy qadriyatlar, uning madaniyatlararo muloqotga qo'shgan hissasi hamda bugungi kunda butunjahon miqyosida falsafiy va adabiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etilishi tahlil qilingan.

Key words: Alisher Navoiy, Sharq adabiyoti, G'arb madaniyati, umuminsoniy qadriyatlar, turkiy til, xalqlararo muloqot, falsafa, adabiyot, ma'rifat, e'tirof.

Kirish

Alisher Navoiy – o'zbek adabiyotining eng yirik vakili, davlat arbobi, buyuk mutafakkir, turkiy tillarni boshqa tillar oldidagi mavqeyiga beqiyos hissa qo'shgan olim, turkiy tilni yana bir pog'onaga ko'targan, butunjahon ma'rifat ahli e'tirof etishiga sababchi inson hisoblanadi.

NAVOIY - SHARQ MADANIYATINING MA'NAVİY ME'YORI

Asrlar davomida sharq va g'arbnı birdek o'ziga jalb qilib kelayotgan Alisher Navoiyning mukammal ijodi va ibratlari hayot yo'lli bugungi axborot zamonida ham ko'plab tilshunos olimlar, turkiyzabonlar, hatto Yevropa va Amerika qit'asida keng miqyosida o'rganilmogda.

Shu bilan birga, Navoiy asarlarini o'qib, chet ellik adabiyot va she'riyat ixlosmandlari turkiy tilga ham yuksak e'tibor va hurmatda bo'lib kelishmoqda. Buyuk bobakalonimiz Mir Alisher Navoiy haqida birinchi prezidentimiz aytgan gaplarni ta'kidlash joiz. «Inson qalbining quvonchu qayg'usimi, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi.»

Darhaqiqat, jahon adabiyoti durdonalariga qaraganimizda ko'z oldimizga milltimiz faxri bo'l mish Alisher Navoiyning bu sahnada nechog'lik keng ko'lamda va nufuzda ekanligiga guvoh bo'lamiz. Misol uchun dunyo miqyosida asarlarida eng ko'p so'z qo'ilagan ijodkorlarning eng kuchli uchligi tuzildi. Bunga ko'ra uchinchi o'rinni ingliz shoiri Vilyam Shekspir salkam 20 mingta, ikkinchi o'rinni rus adabiyotining eng buyuk namoyondasi Aleksandr Pushkin 21 ming 197 ta so'zni va birinchi o'rinda esa so'z

mulkinining sultonini Alisher Navoiyda 1 million 378 ming 600 ta betakror so'z ishlatsan. Shu sababli ham biz biz buyuk mutafakkir bobomizni so'z mulkinining sultonini deya baralla ayta olamiz.

Har yili respublikamiz miqyosida buyuk bobakalonimiz Alisher Navoiy tavalludi keng nishonlanadi. O'quvchi-yoshlar ruhiyatida faxr va kelajakda munosib avlod bo'la olish hissi bilan, mas'uliyati bilan bu ulug' zot kabi bo'la olish istagidagi avlodlar barchaga birdek manzur keladigan ijodidan bahramand bo'lib kelishmoqda.

Butun dunyoga sharq maktabi degan tushuncha o'tgan mingyillik davomida shakllanib, ravnaq topdi. Bu maktabda bizning ham zamindan chiqqan buyuk olim, faylasuf, daho insonlar, xususan, Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Al-Buxoriy va mana shunday yuzlab buyuk shaxslar qatorida 1441-yil 9-fevralda Hirot shahrida dunyoga kelgan o'zbek mutafakkiri va qomusiy olimi, shoir va davlat arbobi Mir Alisher Navoiy ham bor. Yuqorida sanab o'tilgan dunyonli lol qoldirgan shaxslar tomonidan yaratilgan asarlar butun dunyo ilm-fan va taraqqiyotida hatto hozirgacha ham qo'llanilib kelinmoqda. Misol uchun, Al-Xorazmiy yaratgan algoritmlar asosida hozirda biz kundalik hayotda foydalanimiz kelinayotgan gadgetlar va qurilmalar misol bo'la oladi. Shu kabi Alisher Navoiy ham o'z asarları orqali minglab insonlarni ma'naviyatida yaxshilik qilish, boshqalarga yordam berish, umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo'lish, shuningdek, ota-onaga muruvvatli bo'lish kabi hislatlarni singdirishga harakat qilgan.

Alisher Navoiy o'z asarlarining ma'nodorligi, keng

qamroviligi bilan o‘z davridagi ijodkorlardan ajralib turgan. Nafaqt hajmi jihatdan, balki, keng qamroviligi bilan shaxsan o‘zimni ham e‘tiborimni tortgan.

O‘sha davr tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ayniqsa hamsashunoslik barcha yuqori martabali shoir va ijodkorlar uchun katta maqsadlardan biri bo‘lgan. Bungacha bo‘lgan davrda esa Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy ham hamsa asarini yozgan bo‘lib, ular bu asarni o‘sha davrda juda ko‘plab asarlar yoziladigan fors tilida yozishgan. Alisher Navoiy esa birinchilardan bo‘lib bu asarni turkiy tilda yozdi va omma e‘tiboriga havola etdi. Bu bilan birga, Hamsa asarini birinchi bo‘lib Husayn Bayqaroga taqdim etib, haqiqiy do‘slik munosabati qanday bo‘lishi kerakligini ham isbotlab qo‘ydi. Qolaversa, juda ham qisqa vaqt ichida ya‘ni 1483–1485 yillar davomida yozib bitkazilganligi lol qoldiradigan darajada e‘tirofga munosib hisoblanadi.

Hozirgi kunda ham turkiy tilni sharqshunos olimlar, tilshunoslari zo‘r qiziqish bilan o‘rganib kelishmoqda. Bunda Alisher Navoiyning yozib qoldirgan asarlar ularga ko‘pgina g‘oya va ma‘lumotlar berib, ularga turkiy til haqida fikrlarini boyitmoqda.

NAVOIY ASARLARINING UMUMINSONIY QIYMATI

Alisher Navoiy asarlarining mazmun-mohiyati haqida gapiradigan bo‘lsak, maktab darsliklarida xususan, 5-sinf darsligida berilgan sher va durroj qissasini oladigan bo‘lsak, o‘quvchi-yoshlarga juda ham kuchli tarbiyaviy va axloqiy ahamiyatga molik sanaladi. Nimaga deganda, chin do‘slik, sadoqat, boshqalarga yordam bera oladigan yaxshi fazilatli inson bo‘lish kabi hislatlarni tarannum etgan. Shu sababli ham Navoiy asarlarining barchasi yosh ham davr ham tanlamay, aslar osha o‘z mavqeysini oshirib kelmoqda. Shuningdek, yuqori sinf o‘quvchilari adabiyot darsliklarida Hamsa besh-dostondan parchalar ham berilgan bo‘lib, ayniqsa «Farhod va Shirin» dostoni qolgan dostonlaridan ajralib turadi va ko‘pgina o‘quvchilar tomonidan sevilib mutolaa qilinadi. Sababi esa, ishqiy-sarguzasht dostoni bo‘lganligi hamda tasavvuf olamida ham noyob asar hisoblanganligidadir.

NAVOIY VA G‘ARB MADANIYATI O‘RTASIDAGI BOG‘LIKLIK

Bu haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, avval ta‘kidlanganidek Alisher Navoiy asarlari shu vaqtgacha turli mamlakatlarda bir qancha tillarda chop etilgan bo‘lib, hatto boshqa tilda so‘zlaydiganlarda ham katta qiziqish va taassurot uyg‘otmoqda. G‘arb madaniyati bilan bog‘liqlik esa alohida e‘tirofa sazovor tushuncha hisoblanadi. Misol uchun, Navoiy yashagan davrni oladigan bo‘lsak, bu davr o‘z navbatida g‘arbiy renessans davriga juda yaqin payt hisoblanib, gumanizm g‘oyalari, falsafiy fikrlar, shuningdek ruboiy, masnaviy, g‘azal, qit‘a kabi she‘riy shakllar G‘arb adabiyotida ham mavjud sonet va ballada shakllari paydo bo‘lishida muhim o‘rin tutgan. Shu bilan birga, Navoiy asarlarida bo‘lgani kabi inson o‘zini anglashi, ruhiy poklanishi kabi so‘fiylikka xos hususiyatlar nemis adabiyoti vakillarida ham uchraydi. Bu ham buyuk shoirning naqadar keng miyosida tan olinganligi hamda ijodi orqali G‘arb adabiyotida ham o‘z ta‘siriga ega ekanligini anglatadi.

Asarlaridan bizga ma‘lumki, Hamsa dostonidan oxirgi beshinchi doston «Saddi Iskandariy» dostoni hisoblanib, ijodkor nimaga aynan Iskandarni bosh qahramon sifatida olganligi barchani birdek qiziqtirib kelmoqda. Bu savolga mening javobim shuki, o‘sha paytlari Iskandar Zulqarnayn adolatli, odil, aqli shoh va sarkarda bo‘lib, yetti iqlimga dong‘i ketgan, o‘zi egallagan hududlarda esa tinchlik hukm surgan, obodonlashtirish, mamlakat rivoji uchun keng miyosida ish olib borgan davlat arbobi deb tasvirlangan. Bu ham bejizga emas edi. Bunday xususiyatga ega podshohni asarlarida keltirish orqali Alisher Navoiy kelajakdagisi barcha davlatni idora etuvchi rahbarlar ham mana shunday bo‘lishlarini istagan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

ALISHER NAVOIYNING E‘TIROF ETILISHI

G‘arb adabiyotshunoslari Alisher Navoiyning keng ijodiy me‘rosini o‘rganib, unga Sharqning Dantesi nomini berishgan.

Bundan tashqari, har yili an‘anaviy tarzda O‘zbekistonning barcha ta‘lim muassasalarida Alisher Navoiy tavalludiga bag‘ishlangan tadbirlar, badiiy kechalar uyushtiriladi. G‘arbda ham o‘ziga xos mavqeyga ega bo‘lgan Navoiyga O‘zbekistonning Toshkent, Samarqand, Navoiy, Andijon, Qo‘qon, Farg‘ona kabi shaharlarida haykal va yodgorliklar mayjud. Shu bilan birga Rossiya Federatsiyasining Moskva shahrida, Yaponiyaning Tokyo shahrida, Afg‘onistonning Hirot shahrida ham buyuk bobokalonimiz, faxr va iftixorimiz Alisher Navoiyga bag‘ishlangan haykallari qad ko‘targan.

Xulosa

Xulosa sifatida shuni aytib o‘tish joizki, milionlab nusxada chop etilib kelinyotgan Navoiy asarları o‘lmas va boqiyidir. Bunday betakror va beqiyos me‘rosni asrash, chuqur o‘rganish, dunyo miyosida e‘tirof etish, Navoiyga esa munosib avlod bo‘lish biz yoshlarning burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navoiy, A. (1991). Xamsa. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot.
2. Gulomov, A. (2001). Alisher Navoiy va G‘arb adabiyoti. Toshkent: Ma‘naviyat.
3. Karimov, I. (1996). Yuksak ma‘naviyat- yengilmas kuch. Toshkent: Ma‘naviyat.
4. Bertels, E.E. (1965). Alisher Navoiy: hayoti va ijodi. Moskva: Nauka.
5. UNESCO (2001). Alisher Navoi: Life and Legacy. Paris: UNESCO Publishing.